

### 3.2. "Iste'molchi" ning majburiyatlari:

a).GBU o'rnatilgan avtotransportlarni va siqilgan tabiiy gazdan foydalanish tug'risidagi amaldagi tartiblar, texnik holatlar, ko'rsatmalar va qarorlarini bajarish.

b).GBU ni va avtotransportlarini texnik soz holatda saqlash.

v).Yo'l varaqasida avtotransportning texnik sozligi haqida belgi qo'yish, ballonlar soni va geometrik hajmi to'g'risida ma'lumotlarni ko'rsatish;

g).Avtotransportni siqilgan tabiiy gaz bilan to'ldirish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma olish;

d).Ballonlarning umumiy soni va geometrik hajmi (+,-) 0,5 aniqlikda avtotransport texpasportida (maxsus vklyadish) yozib qo'yish.

3.3. "Gaz to'ldiruvchi" va "Iste'molchi" siqilgan tabiiy gaz bilan ta'minlash va qabul qilishni oy davomida bir maromda, bir kunlik o'rtacha gaz hajmi miqdorida amalga oshiradilar.

Iste'molchi" siqilgan tabiiy gazni qabul qilish bo'yicha barcha o'zgarishlar to'g'risida "Gaz to'ldiruvchi"ni oldindan 15 kundan kechiktirmay yozma ravishda yoki telefonogramma orqali ogohlantirishi shart.

"Gaz to'ldiruvchi" AGNKS da joriy va kapital ta'mir ishlari boshlangan taqdirda "Iste'molchi" ni 3 kun oldin, ishga tushishidan 15 kun oldin ogohlantiradi.

### 3.4. "Gaz to'ldiruvchi" majburiyatlari:

a). gaz uskunalaridan to'g'ri foydalanishni, avtotransportlardagi nazorat-o'lchov asboblari va gazni ochish-yopish armaturalari sozligini tekshiradi.

v)."Iste'molchi" ("Iste'molchi" vakili) tomonidan belgilangan qoidalar, gaz to'ldirish reglamenti, mazkur shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda avtotransportga siqilgan gaz to'ldirish to'xtatiladi.

## IV. Taraflarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ma'suliyati.

4.1. Taraflar shartnoma shartlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun talablariga so'zsiz amal qiladi.

4.2. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan holda, ushbu shartnoma doirasida qonun buzilishga olib keladigan harakatlar(harakatsizlik)ga yo'l qo'ymaydilar.

4.3. Taraflar O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish barobarida quyidagilarga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar:

- pora berish, shuningdek ushbu jinoyatga vositachilik qilish;
- tovlamachilik, yoki boshqa noqonuniy yo'llar bilan pora olishga undash;
- pora olishga bevosita yoki bilvosita rozilik berish.

4.4. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari rag'batlantirishning har qanday shaklini rad etadilar. jumladan:

- taraflarning xodimlari yoki vakillaridan pul mablag'lari olish, sovg'alar berish, ularga bepul xizmatlar ko'rsatish yoki ishlarni bajarishni ushbu harakat(harakatsizlik)ni amalga oshirgan xodim yoki vakolatli vakil uni rag'batlantiradigan tomon foydasiga har qanday harakatni bajarishni.

4.5. Taraflarga shartnoma shartlarini amalga oshirishda sun'iy ravishda ikkinchi tarafga noqulayliklar tug'dirib, korrupsiyaviy omil paydo bo'lishiga bevosita hamda bilvosita sababchi bo'lish taqiqlanadi.

4.6. Agar shartnoma taraflari tomonidan shartnoma shartlariga rioya qilmaslik yoki ushbu shartlarning buzilish holatlari sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon